



QASHQADARYO VILOYAT
STATISTIKA BOSHQARMASI

QASHQADARYO
VILOYATINING
DEMOGRAFIK HOLATI

*2024- yil
yanvar-iyun*



QASHQADARYO VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

2024- yil 1- iyul holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Qashqadaryo viloyatida 2024- yil 1- iyul holatiga doimiy aholi soni **3594,1** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **33,5** ming kishiga yoki **0,9 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **1536,7** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **42,8 %**), qishloq aholisi soni **2057,4** ming kishi (**57,2 %**)ni tashkil etdi.

Doimiy aholi soni

3594,1 *ming kishi*

Tabiiy o'sish

+36,5 *ming kishi*

Doimiy aholi sonining taqsimlanishi

2024- yil 1- iyul holatiga

Shahar




42,8%

Qishloq



57,2%


Erkaklar



50,7%

1822,0 *ming kishi*

Ayollar



49,3%

1772,1 *ming kishi*

Qashqadaryo viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar



Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni


2024- yil 1- iyul holatiga

9,9 %

Mehnatga layoqatli yoshdan kattalar

34,7 %

Mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar



55,4 %

Mehnatga layoqatli yoshdagilar

2024- yil 1- iyul holatiga ko'ra, Qashqadaryo viloyati doimiy aholisi sonining **34,7 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **55,4 %** i mehnatga layoqatli yoshdagilar, va **9,9 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi

1- iyul holatiga, ming kishi

	2023- yil (yakuniy ma'lumot)	2024- yil (dastlabki ma'lumot)	O'sish sur'ati, % da
Qashqadaryo viloyat	3515,1	3594,1	102,2
<i>hududlar:</i>			
Qarshi sh	292,0	298,1	102,1
Shahrisabz sh	145,7	148,4	101,9
G'uzor	219,5	224,4	102,2
Dehqonobod	157,7	161,0	102,1
Qamashi	289,5	295,9	102,2
Qarshi	268,6	275,4	102,5
Koson	308,0	315,2	102,3
Kitob	278,4	284,3	102,1
Mirishkor	127,8	130,6	102,2
Muborak	92,4	94,2	101,9
Nishon	164,3	168,4	102,5
Kasbi	210,3	215,0	102,2
Ko'kdala	185,7	191,1	102,9
Chiroqchi	263,6	270,7	102,7
Shahrisabz	232,4	236,4	101,7
Yakkabog'	279,2	285,0	102,1

Tug'ilganlar soni

Ma'lumot uchun!: tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urish, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyor qisqarishi) biri mavjud bo'lsa bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Qiz bola:

20,7 ming kishi



O'g'il bola:


23,2 ming kishi

2024- yilning yanvar-iyun oylarida **43,9** mingta tug'ilganlar qayd etilgan bo'lib, shundan o'g'il bolalar **52,8 %** ni, qiz bolalar **47,2 %** ni tashkil etadi.

Tug'ilishlarning chaqaloqlar soni bo'yicha taqsimlanishi

2024- yil yanvar-iyun


2 nafar egizak
2,1%




1 nafar
97,9%

2024- yilning yanvar - iyun oylarida qayd etilgan tug'ilishlarda 1 nafar va egizak tug'ilgan chaqaloqlar soni bo'yicha tahlil etilganda quyidagi ulushga ega bo'lganligi kuzatildi:

 1 nafar – **97,8%**


 2 nafar – **2,1%**

Tug‘ilish sonining hududlar bo‘yicha taqsimlanishi

1- iyul holatiga, kishi

	2023- yil (yakuniy ma'lumot)	2024- yil (dastlabki ma'lumot)	O'sish sur'ati, % da
Qashqadaryo viloyat	44445	43909	98,8
<i>hududlar:</i>			
Qarshi sh	3722	3340	89,7
Shahrisabz sh	1425	1537	107,9
G'uzor	2895	3002	103,7
Dehqonobod	2309	2302	99,7
Qamashi	3906	3993	102,2
Qarshi	3416	3448	100,9
Koson	4216	4080	96,8
Kitob	3069	3202	104,3
Mirishkor	1523	1402	92,1
Muborak	1007	1142	113,4
Nishon	2106	2209	104,9
Kasbi	2687	2599	96,7
Ko'kdala	2761	2638	95,5
Chiroqchi	3763	3555	94,5
Shahrisabz	2120	2078	98,0
Yakkabog'	3520	3382	96,1

2024- yilning yanvar-iyun oylarida **43,9** mingta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib (bu yerda va bundan keyin tug‘ilganlarga faqat tirik tug‘ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti **24,7** promilleni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan plus **0,9** promillega kamaygan (2023- yilning yanvar- iyun oylarida **25,6** promille bo‘lgan).




VAFOT ETGANLAR

2024- yilning yanvar-iyun oylarida **7,4** mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga o'lim koeffitsiyenti **4,2** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan minus **0,4** promillega kamaygan (2023- yilning yanvar-iyun oylarida **4,6** promille).


O‘limning asosiy sabablari bo‘yicha taqsimlanishi

2024- yil yanvar-iyun, kishi




2024- yilning yanvar - iyun oylarida qayd etilgan o‘lim holatining **52,0 %** i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **7,4 %** i – o‘simtalardan, **11,3 %** i – nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, **5,0 %** i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **3,9 %** i – ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, **1,1 %** i – yuqumli va parazitlar kasalliklardan, **19,3 %** i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

QAYD ETILGAN NIKOHLAR




2024- yilning yanvar-iyun oylarida **9801** ta nikoh qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti **5,5** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan **0,2** promillega kamayganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-iyun oylarida **5,7** promille bo‘lgan).

NIKOHDAN AJRALISHLAR



2024- yil yanvar-iyun oylarida **1,5** mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **0,9** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan kamayganligi kuzatildi (2023- yil yanvar-iyun oylarida **1,0** promille bo'lgan).

Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo'yicha taqsimlanishi
2024- yil yanvar-iyun



2024- yil yanvar-iyun oylarida Qashqadaryo viloyatida jami nikohdan ajrashganlarning **50,7 %** i farzandsiz, **25,2 %** i bitta farzand bilan va **24,1 %** i ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to'g'ri kelgan.


AHOLI MIGRATSIYASI

(Doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar)

2024- yil yanvar-iyun oylarida Qashqadaryo viloyati bo‘yicha doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlar jami soni **5704** kishini tashkil etdi. Doimiy yashash maqsadida ko‘chib ketganlar soni jami **8776** kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi- **3072** kishini tashkil etadi. 2023-yilning mos davrida-**3581** kishi bo‘lgan.

Qashqadaryo viloyat bo‘yicha ko‘chib kelganlarning taqsimlanishi

2024- yil yanvar-iyun, (kishi)




2024- yilning yanvar-iyun oylarida **5,7** mingta ko‘chib kelganlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga ko‘chib kelish koeffitsiyenti **3,2** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan **0,6** promillega ko‘payganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-iyun oylarida **2,6** promille bo‘lgan).

Qashqadaryo viloyati bo'yicha ko'chib ketganlarning taqsimlanishi

2024- yil yanvar-iyun, (kishi)

2024- yilning yanvar-iyun oylarida **8,8** mingta ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib ketish koeffitsiyent **4,9** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan **0,3** promillega ko'payganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-iyun oylarida **4,6** promille bo'lgan).



Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayyan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va muayyan hududdan ko'chib ketganlar soni ayriladi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

O'lim sabablari – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasaliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining oʻrtacha soniga boʻlib, 1000ga koʻpaytirish orqali hisoblanadi.

Koʻchib kelganlar soni – koʻchib kelganlarning absolyut miqdori, yaʼni muayyan hududga uning tashqarisidan koʻchib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi boʻyicha roʻyxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish soʻrovnomalarini qayta ishlash natijasida koʻchib kelish.

Koʻchib ketganlar soni – koʻchib ketganlarning absolyut miqdori, yaʼni muayyan hududga uning tashqarisidan koʻchib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi boʻyicha roʻyxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish soʻrovnomalarini qayta ishlash natijasida koʻchib ketish.

Aholining migratsion oʻsishi (farqi) – hisobot davrida koʻchib kelganlar va koʻchib ketganlar soni oʻrtasidagi farqning absolyut miqdori.

Demografiya va mehnat statistikasi boʻlimi

Tel: 75 221-15-84, 70-70